

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI

**AXBOROT TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA TA’LIM TIZIMINI YANADA
TAKOMILLASHTIRISH, ILMIY TADQIQOTLARNI RIVOJLANTIRISH VA ULARNI
IT-INDUSTRIYA BILAN INTEGRATSIYA QILISH CHORA-TADBIRLARI
TO‘G‘RISIDA**

Axborot texnologiyalari sohasidagi kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholining kundalik hayotiga keng joriy etishni ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari sohasidagi kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha ko‘rilayotgan choralar davlat organlari va tarmoq tashkilotlarini malakali IT-mutaxassislar bilan ta’minlash uchun mustahkam zamin yaratmoqda.

Xususan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo‘nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan maktab va bir qator xorijiy universitetlar filiallari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, tuman va shaharlarda raqamli texnologiyalarga o‘qitish markazlari bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda.

Shu bilan birga, respublikaning mehnat bozorida malakali kadrlar yetishmovchiligi axborot texnologiyalari sohasidagi o‘quv dasturlari va uslublarini takomillashtirish, ta’lim muassasalarining IT-kompaniyalar bilan o‘zaro hamkorligini kuchaytirishni taqozo etmoqda.

Axborot texnologiyalarining o‘qitilishini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, mehnat bozorining malakali IT-mutaxassislariga bo‘lgan talabini qoniqtirish, shuningdek, 2017 — 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid **davlat dasturida** belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida:

Oldingi tahrirga qarang.

(1-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son)

2. Quyidagilar:

2020-yilda tashkil etiladigan, informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan tayanch maktablari hamda ularga birlashtirilgan oliy ta’lim muassasalari, ilmiy va innovatsiya markazlari, hamda ishlab chiqarish korxonalari ro‘yxati **1-ilovaga** muvofiq;

Oldingi tahrirga qarang.

(2-bandning uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son)

2020 — 2023-yillarda informatika va axborot texnologiyalari yo‘nalishida uzluksiz ta’lim sifatini oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Oldingi tahrirga qarang.

(3-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son)

Oldingi tahrirga qarang.

(4-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son)

Oldingi tahrirga qarang.

5. Prezident ta’lim muassasalari agentligi, Xalq ta’limi vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda:

(5-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son)

a) 2020/2021 o‘quv yilidan boshlab:

ixtisoslashtirilgan va boshqa umumta’lim maktablarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanining “Bir million dasturchi” loyihasiga oid o‘quv dasturlari bilan bosqichma-bosqich integratsiya qilinishini ta’minlasin;

o‘quvchilari “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan davlat umumta’lim maktablarining 100 nafar eng yaxshi “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilarini Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi va IT-parkning mablag‘lari hisobidan har yili bazaviy hisoblash miqdorining 20 baravari miqdorida bir martalik mukofotlash tizimini joriy qilsin;

b) umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturini ishlab chiqish doirasida “Informatika va axborot texnologiyalari” fani bo‘yicha o‘quv dasturlarini axborot texnologiyalari sohasida o‘qitishning zamonaviy tendensiyalariga muvofiqlashtirsin;

Oldingi tahrirga qarang.

(5-bandning “v” kichik bandi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoniga asosan chiqarilgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son)

6. Ixtisoslashtirilgan maktablarga biriktirilgan tashkilotlarning ushbu maktablarni muqobil darslik va qo‘llanmalar bilan ta’minlash, ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va o‘qituvchilari malakasini oshirishda amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha tashabbusi qo‘llab-quvvatlansin.

Belgilansinki, ixtisoslashtirilgan maktablarni rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlesh, ularning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish, shu jumladan ularni zamonaviy jihozlar, mebel, kompyuter va tashkiliy texnika bilan jihozlash, shuningdek, o‘quv adabiyotlari, metodik qo‘llanmalar va boshqa vositalar bilan ta’minlash quyidagi mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrda “Zamonaviy maktab”larni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4537-son [qaroridagi](#) umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlesh va jihozlashning asosiy parametrlarida nazarda tutilgan moliyalashtirish manbalari;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining mahalliy budjetlari qo‘shimcha manbalari va budjetdan tashqari mablag‘lari;

ixtisoslashtirilgan maktablarga biriktirilgan oliy ta’lim muassasalarining budjetdan tashqari, ilmiy va innovatsiya markazlari hamda ishlab chiqarish korxonalarining homiylik mablag‘lari;

xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlarning texnik ko‘magi va grant mablag‘lari; homiylik mablag‘lari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Oldingi tahrirga qarang.

(7-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoniga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son)

8. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi Xalq ta’limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va “O‘zstandart” agentligi bilan birgalikda 2021-yil 1-martga qadar “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilarini sertifikatlash milliy tizimini joriy qilsin.

Oldingi tahrirga qarang.

(9-band O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-241-sonli qaroriga asosan o‘z kuchini yo‘qotgan — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 12.05.2022-y., 07/22/241/0408-son)

10. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining axborot texnologiyalari yo‘nalishi bo‘yicha o‘rta bo‘g‘in kadrlarini tayyorlaydigan texnikumlarga [4-ilovaga](#) muvofiq ishlab chiqarish korxonalarini biriktirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin. Bunda ushbu korxonalar tomonidan quyidagilar amalga oshirilishi nazarda tutiladi:

texnikumlar moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni kompyuter va boshqa jihozlar, darsliklar va zamonaviy adabiyotlar bilan ta'minlashda doimiy asosda amaliy yordam ko'rsatish;
texnikumlarda o'quvchilarni, shu jumladan axborot texnologiyalari sohasidagi mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha korxonalarining yillik tarmoq buyurtmasini shakllantirish;
texnikumlarda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Toshkent shahridagi Inxa universiteti va Toshkent shahridagi Amiti universiteti o'qituvchilarini jalb qilgan holda, shu jumladan masofaviy o'qitish orqali o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishga ko'maklashish.

11. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi:

a) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent viloyati hokimligi bilan birgalikda 2021/2022 o'quv yilidan Toshkent viloyatida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining filialini tashkil etsin.

Vazirlar Mahkamasi 2021-yil 1-yanvarga qadar Toshkent viloyatida Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining filiali faoliyatini tashkil etish bo'yicha Hukumat qarorini qabul qilsin;

b) Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda ikki oy muddatda har bir hududda axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari yo'nalishlari bo'yicha kadrlarni tayyorlash uchun texnikumlar faoliyatini tashkil etish to'g'risida Hukumat qarori loyihasini tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

12. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining:

oliy ta'lim muassasalarining tegishli ta'lim yo'nalishlari talabalari o'rtasida informatika, dasturlash va axborot texnologiyalari sohalarida o'tkaziladigan respublika fan olimpiadalari g'oliblari, shuningdek, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan belgilanadigan nufuzli xalqaro olimpiadalar sovrindorlari bo'lgan talabalarni oliy ta'lim muassasalarining tegishli magistratura yo'nalishlariga ajratilgan kvota doirasida davlat grantlari asosida imtihonsiz qabul qilish;

2021/2022 o'quv yilidan boshlab informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishlarida kadrlar tayyorlayotgan barcha oliy ta'lim muassasalari tomonidan umumta'lim maktablari bitiruvchi sinflari o'quvchilari o'rtasida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani bo'yicha ko'p bosqichli (tuman (shahar) — viloyat — oliy ta'lim muassasasi) o'z olimpiadasini o'tkazishi va 1 — 3-o'rinlarni egallagan o'quvchilarni birinchi o'quv yili uchun to'lov oliy ta'lim muassasalarining mablag'lari hisobidan amalga oshirilgan holda imtihonsiz o'qishga qabul qilish to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

13. Shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2021-yildan boshlab "Informatika va axborot texnologiyalari" fani bo'yicha xalqaro olimpiadalar g'oliblarini tayyorlagan professor-o'qituvchilarni oliy ta'lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan bir oylik maosh miqdorida bir martalik mukofotlash tizimi joriy etiladi.

Bunda, oliy ta'lim muassasasi o'z moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqib, olimpiadalarning g'oliblari tomonidan egallangan o'ringa qarab, ularni tayyorlagan professor-o'qituvchilarni qo'shimcha mukofotlash tizimini joriy etish huquqiga ega.

14. Oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturi doirasida psixologiya-pedagogika fanlarini o'rgangan informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishi bitiruvchilariga ixtisoslashtirilgan maktablar va umumta'lim maktablarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fanlarini o'qitishga ruxsat berilsin.

15. Belgilab qo'yilsinki:

oliy ta'lim muassasalarining informatika va axborot texnologiyalari bilan bog'liq ta'lim yo'nalishlari bo'yicha imtiyozli diplomga ega bo'lgan bitiruvchilari mazkur oliy ta'lim muassasalarining magistraturasiga kirish imtihonlarisiz to'lov-kontrakt asosida qabul qilinadi;

umumta'lim maktablarining "Informatika va axborot texnologiyalari" fani bo'yicha o'rta-maxsus ma'lumotli va kamida bir yil pedagogik ish stajiga ega o'qituvchilari Muhammad al-

Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga pedagogika yoʻnalishi boʻyicha masofaviy oʻqitish shaklida toʻlov-kontrakt asosida kirish imtihonlarisiz qabul qilinadi.

16. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Xalq taʼlimi vazirligi, Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi bilan birgalikda 2021-yil 1-yanvarga qadar quyidagilarni joylashtirib borishni nazarda tutuvchi “Oʻzbekistonning IT-isteʼdodlari” portalini ishga tushirsin:

axborot texnologiyalari sohasidagi xalqaro va tarmoq olimpiadalari, kompyuterda dasturlash va kibersport boʻyicha xakatonlar gʻoliblarining muntazam reyestri;

“Bir million dasturchi” dasturini amalga oshirishning holati, axborot texnologiyalari va kompyuterda dasturlash sohasida oʻtkaziladigan olimpiadalar, tanlovlar va aksiyalar toʻgʻrisida maʼlumotlar;

axborot texnologiyalari va kompyuterda dasturlash sohasiga ixtisoslashtirilgan markazlar, maktablar va boshqa taʼlim muassasalari, shuningdek, oʻtkaziladigan oʻquv kurslari, toʻgaraklar va treninglar toʻgʻrisidagi batafsil maʼlumotlar.

17. Axborot texnologiyalari sohasidagi ilmiy va innovatsiya markazlarining istiqbolli loyihalarini tijoratlashtirishni tashkil etish dasturi (keyingi oʻrinlarda — Tijoratlashtirish dasturi) [5-ildovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar Tijoratlashtirish dasturida belgilangan chora-tadbirlarni muvofiqlashtirishni taʼminlasin.

Tijoratlashtirish dasturi ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishga masʼul tashkilotlarning oʻz mablagʻlari, Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Ilmiy va ilmiy-texnik faoliyat natijalarini tijoratlashtirish Prezident jamgʻarmasining mablagʻlari, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamgʻarmasi tomonidan ushbu maqsadlarga ajratilgan mablagʻlar, shuningdek, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalarning mablagʻlari hisobidan moliyalashtirilishi belgilansin.

18. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan birgalikda, shu jumladan raqamli texnologiyalar oʻquv markazlarini jalb etgan holda aholini mehnat bozorida axborot texnologiyalari hamda Internet tarmogʻi orqali koʻrsatiladigan autsorsing xizmatlari sohasidagi talab yuqori boʻlgan kasblar va tadbirkorlik asoslariga oʻqitishni tashkil etsin.

19. Moliya vazirligi ushbu qarorni joriy yilda amalga oshirish bilan bogʻliq xarajatlarni moliyalashtirish uchun zarur mablagʻlarni 2020-yilga tasdiqlangan budjet parametrlari doirasida ajratsin, 2021-yildan boshlab esa kelgusi yil Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutsin.

20. Mazkur qarorda belgilangan vazifalar va chora-tadbirlarning sifatli hamda oʻz vaqtida bajarilishini muvofiqlashtirish va monitoring qilishning quyidagi tartibi oʻrnatilsin:

xalq taʼlimi vaziri Sh. Shermatov, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi direktori S. Babaxodjayev — umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini oʻqitish sifatini oshirish, hududlarda ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini samarali tashkil etish va yoshlarni xalqaro olimpiadalarga tayyorlashni taʼminlaydi;

oliy va oʻrta maxsus taʼlim vaziri I. Majidov, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh. Sadikov, tegishli oliy taʼlim muassasalari rektorlari — oʻrta maxsus, professional taʼlim muassasalarida, faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan maktablarda “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini samarali oʻqitishni va ularga oʻquv-uslubiy yordam koʻrsatishni muvofiqlashtiradi;

innovatsion rivojlanish vaziri I. Abduraxmonov, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Sh. Sadikov, tegishli ilmiy va oliy taʼlim muassasalari rahbarlari — yoshlarni informatika va axborot texnologiyalari sohasida ilmiy-tadqiqotga jalb qilish va olimlarni ragʻbatlantirish, ularning ishlab chiqarish tarmoqlarida mavjud muammolarning ilmiy

yechimiga qaratilgan dasturiy mahsulotlarni yaratishiga ko‘maklashish yuzasidan tizimli va keng qamrovli ishlarni tashkillashtiradi;

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari B. Musayev, Bosh vazir maslahatchisi — IT-texnologiyalar, telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari departamenti boshlig‘i O. Umarov — mazkur qarorda belgilangan vazifalar va chora-tadbirlarning sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirilishi ustidan tizimli nazoratni tashkil etadi.

21. Xalq ta’limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritсин.

22. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A. Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 6-oktabr,
PQ-4851-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son qaroriga
1-ILOVA

2020-yilda tashkil etiladigan, informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o‘qitishga ixtisoslashtirilgan tayanch maktablari hamda ularga biriktirilgan oliy ta’lim muassasalari, ilmiy va innovatsiya markazlari, hamda ishlab chiqarish korxonalari

RO‘YXATI

T/r	Hudud va umumta’lim maktabi nomi	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari yo‘nalishlariga ixtisoslashgan oliy ta’lim muassasalari	Ilmiy va innovatsiya markazlari	Ishlab chiqarish korxonalari	Jalb etiladigan homiylik mablag‘lari, mln.so‘m
Qoraqalpog‘iston Respublikasi					
1.	Nukus shahridagi 2-son umumta’lim maktabi	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Nukus filiali	TATU huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-innovatsion markazi	“Aloqabank” ATB	350,0
Andijon viloyati					
2.	Andijon shahridagi 18-son umumta’lim maktabi	Andijon davlat universiteti	Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Mikroelektronika va yarim o‘tkazgichlar fizikasi ilmiy-tadqiqot instituti	“O‘zbektelekom” AK	540,0
Buxoro viloyati					

3.	Buxoro shahridagi 7-son umumta'lim maktabi	Buxoro davlat universiteti	Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi O'zbek-Yapon yoshlar innovatsion markazi	“UNICON.UZ” fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi” DUK “Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi” DM	530,0
Jizzax viloyati					
4.	Jizzax shahridagi 8-son umumta'lim maktabi	Toshkent shahridagi Inxa universiteti	Toshkent shahridagi Inxa universiteti qoshidagi Faol tadbirkorlik innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash markazi	“Unitel” MChJ	600,0
Qashqadaryo viloyati					
5.	Qarshi shahridagi 32-son umumta'lim maktabi	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filiali	Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Innovatsion ishlanmalarni joriy etish ilmiy-amaliy markazi	“Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi” DUK, “Respublika maxsus aloqa bog'lamasi” DUK	350,0
Navoiy viloyati					
6.	Navoiy shahridagi 17-son umumta'lim maktabi	Toshkent shahridagi Amiti universiteti	“UNICON.UZ” fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi” DUK	“Elektro-magnit moslashuv markazi” DUK, Davlat feldyegerlik xizmati	570,0
Namangan viloyati					
7.	Namangan shahridagi 86-son umumta'lim maktabi	Namangan davlat universiteti	TATU huzuridagi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ilmiy-innovatsion markazi	“UMS” MChJ	590,0
Samarqand viloyati					

8.	Samarqand shahridagi 9-son umumta'lim maktabi	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Mikroelektronika va yarimo'tkazgichlar fizikasi ilmiy-tadqiqot instituti	"UZINFOCOM" davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator" MChJ, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi	340,0
Sirdaryo viloyati					
9.	Guliston shahridagi Xorijiy tillarga ixtisoslashgan maktab-internati	Guliston davlat universiteti	Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi O'zbek-Yapon yoshlarinnovatsion markazi	"Xavfsiz shahar" jamoat xavfsizligiga ko'maklashish markazi" DM	270,0
Surxondaryo viloyati					
10.	Termiz shahridagi 16-son umumta'lim maktabi	Termiz davlat universiteti	"UNICON.UZ" fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi" DUK	"O'zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi" DUK, "O'zimpeksaloqa" MChJ	270,0
Toshkent viloyati					
11.	O'rtachirchiq tumanidagi 3-son umumta'lim maktabi	Toshkent shahridagi Inxa universiteti	Toshkent shahridagi Inxa universiteti qoshidagi Faol tadbirkorlik innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash markazi	"Coscom" MChJ	790,0
		Toshkent axborot texnologiyalari universiteti			
		Toshkent shahridagi Amiti universiteti			
Farg'ona viloyati					
12.	Farg'ona shahridagi 19-son umumta'lim maktabi	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali	"UNICON.UZ" fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi" DUK	"O'zbekiston pochta" AJ, "ALOQALOYIHA" DUK	200,0
Xorazm viloyati					

13.	Urganch shahridagi 30-son umumta'lim maktabi	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Urganch filiali	Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Innovatsion ishlanmalarni joriy etish ilmiy-amaliy markazi	“ALSKOM” AJ SK, “Raqamli iqtisodiyot tadqiqotlari markazi” DM	340,0
Toshkent shahri					
14.	Yunusobod tumanidagi 9-son ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi	Toshkent shahridagi Amiti universiteti Toshkent axborot texnologiyalari universiteti O'zbekiston milliy universiteti	Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti qoshidagi Mikroelektronika va yarimo'tkazgichlar fizikasi ilmiy-tadqiqot instituti	“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ	410,0

Izoh. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda ushbu ro'yxatdagi umumta'lim maktablariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishlari mumkin.

Oldingi tahrirga qarang.

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-sonli Farmoniga asosan o'z kuchini yo'qotgan — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.04.2022-y., 06/22/106/0314-son)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son qaroriga
3-ILOVA

2020 — 2023-yillarda informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishida uzluksiz ta'lim sifatini oshirish bo'yicha

“YO'L XARITASI”

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Amalga oshirish muddati	Moliyalashtirish manbai	Mas'ul ijrochilar
I. Umumta'lim muassasalarida informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitish sifatini oshirish					
1.	Informatika va axborot texnologiyalarini chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar (keyingi o'rinlarda — ixtisoslashtirilgan maktablar) ro'yxatini shakllantirish.	1. Ixtisoslashtirilgan maktablarni aniqlash va ro'yxatini shakllantirish. 2. Ixtisoslashtirilgan maktablar binolari, moddiy-texnik va o'quv-uslubiy ta'minotining amaldagi holatini to'liq xatlovdan o'tkazish.	2020-yil noyabr 2020-yil dekabr	—	Axborot texnologiyalari vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari

		3. Ixtisoslashtirilgan maktablar va Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari uchun imtiyozli internet tariflarini ishlab chiqish.	2020-yil oktyabr		Axborot texnologiyalari vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi, "O'zbektelekom" AK
		4. Ixtisoslashtirilgan maktablarni zamonaviy uskunalar, mebel, kompyuter texnikasi bilan jihozlash, shuningdek, ularni o'quv adabiyotlari, uslubiy qo'llanmalar va boshqa vositalar bilan ta'minlash bo'yicha namunaviy loyihalar va me'yorlarni tasdiqlash.	2020-yil dekabr		
2.	Ixtisoslashtirilgan maktablarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash.	1. Xatlov natijalaridan kelib chiqib, ixtisoslashtirilgan maktablarning bino va inshootlarini mukammal ta'mirlash va rekonstruksiya qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish. 2. Ta'mirtalab bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish yoki ta'mirlash, ixtisoslashtirilgan maktablarni zamonaviy kompyuter texnikalari va o'quv mebellari bilan jihozlash ishlarining moliyalashtirish manbasi yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	Kelishilgan reja asosida	Mahalliy budjet daromadlarining rejadan orttirib bajarilgan qismi va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar	Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Axborot texnologiyalari vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Moliya vazirligi

3.	Xalqaro standartlar talablarini hisobga olgan holda ixtisoslashtirilgan maktablarning o'quv reja va dasturlarini tasdiqlash.	1. Informatika va axborot texnologiyalari fani o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha Ishchi guruhni shakllantirish.	2020-yil dekabr	–	Xalq ta'limi vazirligi, Axborot texnologiyalari vazirligi, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi
		2. Ishchi guruh tomonidan ixtisoslashtirilgan maktablarining o'quv faoliyatini tashkil etish bo'yicha xorij tajribasini o'rganish.	2021-yil yanvar		
		3. Ixtisoslashtirilgan maktablar uchun o'quv reja va dasturlarini qayta ko'rib chiqish.	2021-yil fevral		
		4. Ixtisoslashtirilgan maktablar yangi o'quv rejaları va dasturlarini tasdiqlash.	2021/2022 o'quv yilidan boshlab		
		5. Ilg'or xorijiy tajriba asosida ta'lim muassasalari uchun informatika fanlaridan o'quv va ilmiy adabiyotlarni yaratish bo'yicha milliy tanlov tashkil qilish.	2021-yildan boshlab		
4.	Ixtisoslashtirilgan maktablar uchun zarur adabiyotlar va ilmiy nashrlarni xarid qilish.	1.O'quv-uslubiy adabiyotlar va ilmiy nashrlar ro'yxatini shakllantirish.	2021-yil sentyabr	Xalq ta'limini rivojlantirish jamg'armasi va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Xalq ta'limi vazirligi, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi, Axborot texnologiyalari vazirligi, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi
		2.O'quv-uslubiy adabiyotlar va ilmiy nashrlarni belgilangan tartibda xarid qilish.	reja-jadvalga asosan		

5.	Ixtisoslashtirilgan maktablarda “Bir million dasturchi” loyihasini keng joriy qilish.	1. Ixtisoslashtirilgan maktablarning 7 — 11 sinf o‘quvchilarini “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida dasturlash tillariga o‘qitishni tashkil qilish.	2020-2021 o‘quv yilidan boshlab	–	Xalq ta’limi vazirligi, Axborot texnologiyalari vazirligi, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi
		2. O‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tugatgan o‘quvchilar Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkining IT-akademiyasida tahsil olishi uchun ularga maxsus chegirmalar asosida yo‘llanma berish tizimini yaratish.	2021-yil fevral		
6.	Ixtisoslashtirilgan maktablarda o‘quv jarayonini tashkil etish uchun yuqori malakali mutaxassislarni tanlash.	1. Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyatini rivojlantirish agentligi tajribasidan kelib chiqqan holda o‘qituvchilarni tanlab olish tartibini ishlab chiqish.	2020-yil dekabr	–	Xalq ta’limi vazirligi, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi, Axborot texnologiyalari vazirligi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
		2. Yuqori malakali mutaxassislarni tanlash va lavozimga tayinlash.	2021/2022 o‘quv yildan boshlab		
7.	“Bir million dasturchi” loyihasi doirasida ixtisoslashtirilgan maktablar o‘qituvchilarining malakasini oshirish.	1. Ixtisoslashtirilgan maktablar o‘qituvchilari ro‘yxatini shakllantirish.	2020/2021 o‘quv yilidan boshlab	–	Axborot texnologiyalari vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi
		2. Ro‘yxat asosida o‘qituvchilar uchun webinar tashkil etish.	Reja-jadvalga asosan		
		3. O‘qituvchilar uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tayyorlash.	2021-yildan boshlab		

8.	Umumta'lim maktablari informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish.	1. Informatika fani o'qituvchilarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini ko'rib chiqish va takomillashtirish.	2020-yil noyabr	–	Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'limi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
		2. Oliy o'quv yurtlari axborot texnologiyalari kafedralarining malakali professor-o'qituvchilarini o'quv kurslariga jalb qilish.	Alohida jadval asosida		
9.	Informatika va axborot texnologiyalari fani o'qituvchilarini sertifikatlashtirish bo'yicha yagona axborot tizimini joriy qilish.	1. Sertifikatlashtirish tizimini ishlab chiqish.	2020-yil dekabr	Axborot texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Davlat test markazi, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi
		2. Tizimni tajriba-sinovdan o'tkazish va takomillashtirish.	2021-yil yanvar		
		3. Sertifikatlashtirish tizimini to'liq joriy qilish.	2021-yil mart		
10.	Ixtisoslashtirilgan maktablarning xodimlarini xorijiy davlatlarning ilg'or umumta'lim muassasalarida stajirovka o'tashini tashkil etish.	1. Stajirovkalarni tashkil etish bo'yicha xalqaro moliya institutlari grant mablag'larini jalb etish. 2. Xorijiy davlatlarning ilg'or umumta'lim muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish. 3. Ixtisoslashtirilgan maktablarning xodimlarini xorijiy davlatlarning ilg'or umumta'lim muassasalarida stajirovkadan o'tishini tashkil etish.	Doimiy ravishda	O'z mablag'lari, xalqaro moliya institutlari grant mablag'lari	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Axborot texnologiyalari vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi

11.	Ixtisoslashtirilgan maktablarning oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorligi mexanizmini joriy etish.	1. Ixtisoslashtirilgan maktablar va biriktirilgan oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning namunaviy shaklini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.	2021-yil yanvar	–	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi, Axborot texnologiyalari vazirligi, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi
		2. Ixtisoslashtirilgan maktablariga biriktirilgan oliy ta'lim muassasalarining mos kafedralari professor-o'qituvchilarining umumta'lim maktablarida mahorat darslari o'tishini tashkil etish jadvalini tasdiqlash.	har o'quv yili boshlanguniga qadar		
		3. Oliy ta'lim muassasalarining mos kafedralari professor-o'qituvchilarining ixtisoslashtirilgan maktablarda soatbay ishlashini tashkil etish.	o'quv yili davomida		
12.	Ixtisoslashtirilgan maktablarga o'quvchilarni qabul qilish tartibi va ularga yaratilgan imkoniyatlar hamda imtiyozlar to'g'risida keng jamoatchilikka yetkazish.	1. Qabul jarayonlarini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha media-reja ishlab chiqish.	2020-yil noyabr	–	Xalq ta'limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi
		2. Media-rejani amalga oshirish.	Belgilangan muddatlarda		
13.	Ixtisoslashtirilgan maktablarga iqtidorli yoshlarni qabul qilish.	1. Xalq ta'limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi va Davlat test markazi tomonidan qo'shma buyruq bilan kvota belgilash.	2020-yil dekabr	–	Xalq ta'limi vazirligi, Axborot texnologiyalari vazirligi, Davlat test markazi

		2. “Ayrim fanlar chuqur o‘rganiladigan davlat umumta’lim muassasalarining ixtisoslashtirilgan sinflariga, davlat ixtisoslashtirilgan umumta’lim muassasalariga o‘quvchilar qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom” asosida ixtisoslashtirilgan maktablarga qabulni tashkil etish.	Belgilangan muddatlarda		
14.	Ixtisoslashtirilgan maktablarga o‘quvchilar qabulini tashkil etish.	1. 2020/2021 o‘quv yili uchun ixtisoslashtirilgan maktablarga o‘quvchilar qabul kvotasini shakllantirish.	2020-yil dekabr	–	Xalq ta’limi vazirligi, Davlat test markazi, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
		2. Iqtidorli talabalarni test natijalari asosida belgilangan tartibda saralash.	2021-yil avgust		
15.	Umumta’lim maktablari o‘quvchilari o‘rtasida informatika va axborot texnologiyalari fani bo‘yicha turli musobaqalar va tanlovlarni tashkil etish.	1. 2020/2021 o‘quv yili davomida o‘tkaziladigan tanlov va musobaqalar reja-jadvali hamda o‘tkazish tartibini tasdiqlash.	2020-yil dekabr	Davlat budjetida ushbu maqsadlarga ko‘zda tutilgan mablag‘lar, “El-yurt umidi” jamg‘armasi	Axborot texnologiyalari vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi
		2. Reja-jadval bo‘yicha informatika va axborot texnologiyalari fani bo‘yicha musobaqalarni va tanlovlarni tashkil etish.	Reja-jadvalga muvofiq		

16.	Toshkent shahridagi Inxa universitetida umumta'lim maktablari o'qituvchilarining malakasini oshirishni tashkil etish.	1. Toshkent shahridagi Inxa universitetining Uzluksiz ta'lim markazi bazasida onlayn seminar, treninglar, konferensiyalar tashkil etish.	2020-yil noyabr	Xalq ta'limini rivojlantirish jamg'armasi va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Toshkent shahridagi Inxa universiteti, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi
		2. Seminar, treninglar o'quv dasturini va jadvalini yaratish.	2020-yil dekabr		
		3. Seminar, treninglarni amalga oshirish.	2021-yil yanvar		

II. Raqamli texnologiyalarga o'qitish hududiy o'quv markazlari faoliyatini yo'lga qo'yish

17.	Har bir viloyat, shahar va tumanlarda raqamli texnologiyalarga o'qitish hududiy o'quv markazlarini (keyingi o'rinlarda — o'quv markazlari) ochish, jumladan: 2020-yilda — 102 ta; 2021-yilda — 101 ta.	1. O'quv markazlarini joylashtirish uchun zarur binolarni aniqlash. 2. O'quv markazlarining joylarini mukammal ta'mirlashni tashkil etish. 3. O'quv markazlarini zarur uskuna va mebel bilan jihozlash. 4. O'quv markazlarini yuqori tezlikdagi Internet tarmog'iga ulash va lokal-hisoblash tarmog'ini yaratish.	2020-2021-yy. rejaga muvofiq	Mahalliy budjet daromadlarining rejadan orttirib bajarilgan qismi hisobidan, Axborot texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi	Axborot texnologiyalari vazirligi, "O'zbektelekom" AK, "O'zbekiston pochta" AJ, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi, mahalliy davlat hokimiyat organlari
18.	O'quv markazlarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash.	1. O'quv markazlarining o'qituvchilari uchun malakaviy talablarni belgilash.	2020-yil noyabr	—	Axborot texnologiyalari vazirligi, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi, Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi
		2. Belgilangan talablar asosida nomzodlarni tanlab olish.	2020-yil dekabr		
19.	O'quv markazlarida davlat va xo'jalik boshqaruvi	1. Malaka oshirish kurslarining o'quv dasturlarini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2020-yil dekabr	Axborot texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi,	Axborot texnologiyalari vazirligi, vazirlik va idoralar, mahalliy

	organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha malakasini oshirish uchun kurslar tashkil etish.	2. Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlarining ro'yxatini shakllantirish.	har yarim yillikda	davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari mablag'lari	davlat hokimiyati organlari, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi
		3. Malaka oshirish kurslarini o'tkazish rejasini tasdiqlash.	har yarim yillikda		
		4. Malaka oshirish kurslari natijasiga ko'ra tinglovchilarga tegishli sertifikatlarni taqdim etish.	kurslar natijasiga ko'ra doimiy ravishda		
20.	Raqamli texnologiyalarga o'qitish bo'yicha zamonaviy o'quv kurslarini tashkil etish.	1. Kompyuter savodxonligiga o'qitish bo'yicha videomateriallar tayyorlash.	2020-yil oktyabr	Axborot texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi, Direksiya mablag'lariva qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Axborot texnologiyalari vazirligi, Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi
		2. O'quv markazlari uchun o'qituvchilar va trenerlarni tayyorlash hamda o'quv dasturlarini ishlab chiqish.	2020-yil noyabr		
		3. Tinglovchilarni tanlab olish va o'qishni tashkil etish.	reja asosida		
		4. Elektron ta'lim tizimini joriy etish.	2020-yil dekabr		
21.	Umumta'lim muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi o'qituvchilarini rag'batlantirish.	1. O'qituvchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish.	2020-yil noyabr	Axborot texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar	Axborot texnologiyalari vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi, Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi
		2. "Bir million dasturchi" dasturi doirasida sertifikatliyadan o'tgan eng ko'p o'quvchiga ega o'qituvchilar reytingini shakllantirish.	har yil yakuniga qadar		

		3. Har yili ixtisoslashtirilgan maktablarning kamida 100 nafar informatika o'qituvchisini rag'batlantirish.	har yil yakuniga qadar		
		4. Taqdirlash marosimini tashkil etish.	har yil yakuniga qadar		
III. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishida o'qitish sifatini oshirish					
22.	Informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishidagi fanlar o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirish.	1. Respublikamizdagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tarkibidan ishchi guruh shakllantirish.	2021-yil yanvar	–	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Axborot texnologiyalari vazirligi
		2. Informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishidagi fanlar o'qituvchilarini tayyorlash dasturlarini xorijiy universitetlar tajribasi asosida tahlil qilib, takomillashtirish.	2021-yil yanvar — iyul		
23.	Informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishidagi ta'lim dasturlarida fanlar bo'yicha o'quv laboratoriya ishlarini takomillashtirish.	1. Oliy ta'lim muassasalarida informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishidagi fanlarni o'qitish uchun laboratoriya jihozlari bo'yicha yangi talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash.	2021-yil yanvar	–	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Axborot texnologiyalari vazirligi, vazirlik va idoralar
		2. Informatika va axborot texnologiyalari yo'nalishidagi ta'lim yo'nalishlari dasturlarida fanlar bo'yicha o'quv laboratoriya ishlarini qayta ko'rib chiqish.	2021-yil mart		

		3. O'quv laboratoriya ishlarini muqobil imkoniyat sifatida tarmoq ishlab chiqarish laboratoriyalariga moslashtirish va 2021/2022 o'quv yilidan boshlab o'quv jarayoniga joriy etish.	2021-yil sentyabr		
24.	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish.	1. Toshkent axborot texnologiyalari universitetining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ilg'or xorijiy universitetlar tajribasini o'rganish.	2021-yil fevral	–	Axborot texnologiyalari vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
		2. O'rganishlar natijasida Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tashkiliy tuzilmasiga o'zgartirish kiritish va faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan taklif kiritish.	2021-yil aprel		
25.	Respublika axborot kutubxona markazi bazasida Toshkent axborot texnologiyalari universitetining "Raqamli kutubxona" sini (Digital Library) tashkil etish.	1. Toshkent axborot texnologiyalari universitetining "Raqamli kutubxona" sini (Digital Library) tashkil etishni nazarda tutuvchi tegishli qaror loyihasini ishlab chiqish.	2021-yil yanvar	Axborot texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi, Universitetning o'z mablag'lari	Axborot texnologiyalari vazirligi, Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
		2. Qaror loyihasini manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishish hamda o'rnatilgan tartibda tasdiqlash uchun kiritish.	2021-yil mart		

26.	Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallarida "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish.	Ta'lim sifatini va ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish maqsadida Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning filiallarida 21 ta zamonaviy ilmiy-ishlab chiqarish laboratoriyalarni tashkil etish.	2021-2022-yy.	Universitetning o'z mablag'lari, Axborot texnologiyalarini rivojlantirish jamg'armasi	Axborot texnologiyalari vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
